

Toshbosma asarlarning katalogi nashr etildi

Dunyo xazinalarini to'ldirib turgan ming-minglab qadimgi yozma yodgorliklar har bir xalqning o'tmish madaniyatini o'zida aks ettiradi. Ularda xalqning boy ma'naviy va madaniy merosi, qadim urf-odati, e'tiqodi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar jamlangan. Ota-bobolarimiz qoldirgan boy madaniy merosni o'rganish, uni kelajak avlodlarga yetkazish nafaqat yurtimizda, balki dunyo olimlari oldidagi muhim masala bo'lib qolmoqda. Yurtboshimizning 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan yozma yodgorliklarimizni o'rganishning yangi bosqichi shakllanmoqda. Qarorda belgilanganidek, "O'zbekiston Respublikasining turli tashkilotlarida saqlanayotgan arab yozuvidagi qo'lyozma asarlar, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlarning saqlanish va ta'mirlanish holatini monitoring qilish va ularning elektron bazasini yaratish" bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondida ham ko'plab noyob qo'lyozma va toshbosma (litografik) asarlar saqlanadi.

Muzey xodimlari tomonidan "Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosma asarlarning elektron katalogini yaratish va nashrga tayyorlash" nomli amaliy loyiha doirasida mingga yaqin toshbosma asarlar ustida izlanishlar olib borildi. Ular turli mavzularga oid asarlar bo'lib, tili va mavzusi bo'yicha teng miqdorda saralab olindi.

Professor S.Hasanov va f.f.d. Sh. Hasanova rahbarligidagi olimlar guruhining uch yillik izlanishlari natijasida arabiy, forsiy, turkiy tildagi toshbosma asarlarning katalogi nashrga tayyorlandi va "Fan" nashriyoti tomonidan chop qilindi.



Katalogdan muzey qo'lyozmalari fondida saqlanayotgan 500 ta toshbosma asarning ilmiy tavsifi o'rin olgan. Arabiy, forsiy, turkiy tildagi asarlar asosan adabiyot, tarix, tilshunoslik, tibbiyot, tafsir va hadis ilmi, mantiq va kalom ilmi, aqid, fiqh, nahv va sarf ilmlari va boshqa sohalarga taalluqli.

Katalog adabiyotshunos, sharqshunos, manbashunos, matnshunos mutaxassislar hamda vatanimiz qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan yozma yodgorliklar bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.